



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

ZAMONAVIY O'ZBEK ADABIYOTIDA INSON VA ZAMON KONSEPSIYASI. ULUG'BEK HAMDAM ROMANLARI MISOLIDA

Mahmudova Durdona Anvarjonovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti, magistrant

Annotatsiya

Mazkur maqola zamonaviy o'zbek adabiyotida inson va zamon konsepsiyasi masalasining badiiy tasvirini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot davomida taniqli yozuvchi Ulug'bek Hamdamning mustaqillik davri va undan keying yillarda yaratilgan "Muvozanat", "Sabo va Samandar" romanlari misolida inson va zamon munosabati tasviri va insonning ruhiy va ma'naviy shakllanishida zamonning ta'siri kabi masalalar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, inson va zamon konsepsiyasi tasvirida muallif tomonidan qo'llanilgan badiiy ifoda va voqeani tasvirlash usullari ham o'rganiladi.

Kalit so'zlar. Konsepsiya, inson va zamon munosabati, zamonaviy adabiyot, diskurs tahlil, psixologik tahlil, qiyosiy tahlil, Muvozanat, Sabo va Samandar.

КОНЦЕПЦИЯ ЧЕЛОВЕКА И ВРЕМЕНИ В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ (НА ПРИМЕРЕ РОМАНОВ УЛУГБЕКА ХАМДАМА)

Махмудова Дурдона Анваржоновна
Ташкентский университет прикладных наук, магистрантка

Аннотация

Данная статья посвящена анализу художественного изображения концепции человека и времени в современной узбекской литературе. В ходе исследования будут рассмотрены романы известного писателя Улугбека Хамдама "Мувозанат", "Сабо ва Самандар" созданные в период независимости и последующие годы, а также вопросы изображения взаимоотношений человека и времени и влияния времени на духовно-нравственное формирование человека. Кроме того, будут изучены методы художественного выражения и описания событий, используемые автором при изображении концепции человека и времени.

Ключевые слова: Концепция, взаимоотношение человека и времени, современная литература, дискурсивный анализ, психологический анализ, сравнительный анализ, Мувозанат, Сабо ва Самандар.

THE CONCEPT OF MAN AND TIME IN CONTEMPORARY UZBEK LITERATURE (BASED ON THE NOVELS OF ULUGBEK HAMDAM)

Mahmudova Durdona Anvarjonovna
Tashkent University of Applied Sciences, Master's Student

Abstract

This article is aimed at analyzing the artistic depiction of the concept of man and time in modern Uzbek literature. During the study, the famous writer Ulugbek Hamdam's novels "Muvozanat", "Sabo va Samandar" created during the period of independence and subsequent years, will examine issues such as the depiction of the relationship between man and time and the influence of time on the spiritual and moral formation of man. Also, the methods of artistic expression and description of the event used by the author in the depiction of the concept of man and time will be studied.

Keywords. Concept, relationship between man and time, modern literature, discourse analysis, psychological analysis, comparative analysis, Muvozanat, Sabo va Samandar.

Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti shakllanish va taraqqiyot yo'lida ko'plab ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga duch keldi. Sovet davri adabiyotidagi qat'iy cheklovlar, milliy g'urur va vatanparvarlik g'oyalariga qo'yilgan taqiqlar hamda kollektivizm masalasi zamonaviy adabiyotda inson xarakteri, uning zamon va jamiyat bilan munosabatining tubdan o'zgarishiga zamin yaratdi. Hozirgi davrda adabiyotshunoslik sohasidagi eng dolzarb muammolardan biri inson va zamon konsepsiyasi hisoblanadi. XXI asr — globallashuv asri adabiyotshunoslar oldiga badiiy qahramon yaratish masalasida uning xarakterini, jamiyat va zamon bilan munosabatini, dunyoqarashini hamda borliqni anglashini yangicha talqin qilish vazifasini qo'ymoqda. Bugungi zamonaviy adabiyotda inson obrazi shunchaki syujetni shakllantiruvchi qahramon emas, balki badiiy asardagi zamon va ijtimoiy hayotning mohiyatini o'z

munosabati, ya'ni ichki monologlari, zamonda bo'layotgan o'zgarishlarga munosabati va o'z istaklarini erkin ifoda eta olishi orqali namoyon etuvchi obrazdir. Zamon va inson konsepsiyasi dinamik hodisa bo'lib, badiiy adabiyotda muayyan davrdagi ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy hayot badiiy qahramon ruhiyati hamda ma'naviyatidagi o'zgarishlar orqali ko'rsatib beriladi. O'zbek adabiyotida inson va zamon konsepsiyasi davrlar almashishi va zamon o'zgarishi bilan turlicha namoyon bo'ladi. Bunga har bir davrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, zamonaviy yangilanishlar, o'tmishni yangicha g'oyalar asosida talqin qilish, madaniyatlar almashinuvi va boshqa omillar sabab bo'ladi.

Bu borada mustaqillik davri o'zbek adabiyotining taniqli vakillaridan biri, yozuvchi Ulug'bek Hamdamning romanlari o'ziga xos maktab vazifasini o'taydi. Yozuvchining **“Muvozanat”**, **“Sabo va Samandar”** kabi romanlarida inson konsepsiyasi zamon va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liq holda tasvirlangan. Shu sababli ham yozuvchi ijodida inson va zamon konsepsiyasining badiiy tasvirini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Ushbu maqolaning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi “O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari to'g'risida” gi qarori hamda mazkur mavzuga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlar tashkil etadi.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida inson va zamon konsepsiyasi masalasini o'rganishda ko'plab ilmiy maqolalar va adabiyotlar asosiy manba sifatida qaraladi. Xususan, rus adabiyotshunosi M. Baxtin o'zining **“Epos va roman”** nomli asarida rus adabiyoti misolida romanlardagi inson va zamon o'rtasidagi turfa xil munosabatlarni tushuntirib beradi [1; 76–80-b.]. Baxtin romanlardagi vaqt va makon birligi haqida fikr yuritib, undagi zamon tarixiy o'tmish emas, balki bugungi kunni ko'rsatib beruvchi oyna ekanligini ta'kidlaydi.

O'zbek adabiyotshunosligida Y. Solijonovning **“Hozirgi adabiy jarayon”** [2; 76–80-b.] hamda U. Hamdamning **“Badiiy tafakkur tadriji”** [3; 9–11-b.] kabi kitoblarida zamonaviy adabiyotdagi o'zgarishlar, zamonaviy tafakkur, inson va zamon munosabatining murakkablashuvi kabi masalalar tahlil qilingan. Shuningdek, mahalliy tadqiqotchilardan A. Qodirov o'zining **“Zamonaviy o'zbek adabiyotida shaxsiy identitet masalasi”** nomli maqolasida zamonaviy adabiyotda inson va ijtimoiy o'zlik masalasini tahlil etadi. Ushbu nazariy va adabiy manbalar tadqiqot jarayonida romanlardagi inson va zamon munosabatini o'rganishga ko'maklashadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy o'zbek adabiyoti taraqqiyotida badiiy asar tahlili, asardagi inson va zamon munosabati tasviri bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar olib borilgan. Mahalliy tadqiqotchilardan Qozoqboy Yo'ldashev va Muhayyo Yo'ldoshning **“Badiiy tahlil turlari”** kitobida zamonaviy asarlarni o'rganish usullari, epik asarlardagi inson va zamon konsepsiyasi muammolarini tahlil qilish yo'llari hamda tahlil jarayonida shakl va mazmun bog'liqligi haqida fikr yuritiladi [4; 201–206-b.]. Ushbu qo'llanma orqali Ulug'bek Hamdam asarlarining asosiy g'oyasi va mazmuni haqida chuqur tahlil olib borish mumkin.

Shuningdek, tadqiqot davomida birinchi navbatda Ulug'bek Hamdamning **“Muvozanat”** va **“Sabo va Samandar”** romanlaridagi asosiy qahramonlarning zamon bilan munosabati diskursiv tahlil, ularning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari, his-tuyg'ulari va xarakteridagi o'zgarishlar esa psixologik tahlil metodlari orqali o'rganiladi. Keyingi metod sifatida roman matni ustida ishlash orqali qahramonlarning ma'naviy evolyutsiyasini sovet davri adabiyotidagi andozalar bilan solishtirish uchun qiyosiy-tarixiy metoddan ham foydalaniladi. Romanlarning asosiy g'oyasi, ulardagi inson va zamon munosabati tasviri hamda roman qahramonlarining o'xshash va farqli xususiyatlari qiyosiy metod orqali tahlil qilinadi, tahlil jarayonida muallifning asar yaratishdagi o'ziga xos uslubi haqida ham fikrlar bildiriladi.

Tahlil va natijalar. Ulug'bek Hamdamning **“Muvozanat”** asari mustaqillikka erishish arafasi va undan keyingi o'tish davridagi murakkab jarayonlar, xususan, shaxs va davr to'qnashuvi tasvirlangan romandir. Asardagi zamon oddiygina voqealar yuz beradigan fon emas, balki qahramon taqdirini, uning dunyoqarashini o'zgartirib yuboruvchi kuch sifatida tasvirlangan. Yozuvchi ushbu asarda mustaqillikning dastlabki yillarida bo'layotgan o'zgarishlar va yangi iqtisodiy hayotga o'tish davrini, ya'ni tarixiy tub burilish jarayonini insonlar taqdiri misolida tushuntirib beradi. Zamonda bo'layotgan o'zgarishlarga qahramonlarning turlicha munosabati orqali muallif ko'plab insonlarning zamonga bo'lgan konsepsiyalarini ochib beradi. Asardagi Mirazim obrazi yangiliklarga tezda moslashib, boy insonga aylanadi. Yana bir obraz — Said esa siyosat sohasidan ketib, katta yutuqlarga erishadi. Boshqa bir obraz — Amir orqali muallif o'zgarishlarga qarshi chiqqan, butkul ruhiy tushkunlikka tushgan, muvozanatni yo'qotgan insonlar tasvirini keltiradi. Yana bir obraz — Muhammadjon aka orqali muallif tarixiy o'tmishni to'liq anglagan va mustaqil kelajak haqida fikrlarga ega bo'lgan insonlar ham borligini tasvirlaydi. Bu

obraz sovet zamonida adolat bilan yashagani uchun qamaladi.

Bosh qahramon sifatida keltirilgan Yusuf obrazini Muhammadjon aka obrazining davomchisi sifatida ko'rish mumkin. U romanning asosiy markazida turib, ham qalb xotirjamligi, ham tashqi xotirjamlikdan iborat bo'lgan muvozanatda yashashga intiladi. Qahramonning hayotida qiyinchiliklar va sinovlar bo'lsa ham, uning zamonga bo'lgan ezgu munosabati o'zgarmaydi. Yusufning nutqi Amir, Said va Mirazim kabi obrazlardan o'zining an'anaviyligi hamda ilmiy inson bo'lgani uchun kitobiy terminlardan foydalanishi bilan ajralib turadi. Bu terminlar orqali uning ma'naviyatini, ichki dunyosini ham anglab olish mumkin. Qahramonning ichki dialogida doim **"Inson kim?", "Men to'g'ri yashayapmanmi?"** kabi savollar tez-tez takrorlanadi. Asar davomida ushbu obrazni ma'naviy qadriyatlarining himoyachisi sifatida tahlil qilish mumkin. Asarning yakuniy qismida qahramonning universitet talabalariga aytgan quyidagi so'zlari asarning asosiy g'oyasini ochib beradi: **"Chuqurroq mushohada yuritib qarasak, tarix bashariyatning muvozanatga erishish yo'lidagi urinishlari solnomasidir. Urush — muvozanat boy berilgach, unga qayta erishish ilinjida so'yilgan qurbonlik, tinchlik — qo'lga kiritilgan zafar sharafiga berilgan ziyofat..."** [5; 258-b.].

Romandagi Mirazim va Said kabi obrazlarning zamonga bo'lgan munosabati **"moddiyat", "mansab", "obro'-e'tibor"** kabi tushunchalar bilan bog'liq. Bu tushunchalar orqali ularning ichki dunyosi va ma'naviyatini ham ilg'ab olish mumkin. Vaqt o'tgan sari ularning psixologiyasida ma'naviy bo'shliqlar paydo bo'la boshlaydi. Ushbu obrazlar moddiyatga yaqinlashgan sari ularning ma'naviyatida zerikish, qayg'u va ma'nisizlik kabi holatlar kuchayadi. Bu holatlar insoniyatning milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrash lozimligi hamda ularga har doim muhtoj ekanligini ko'rsatib beradi.

Ulug'bek Hamdamning **"Sabo va Samandar"** asari **"Muvozanat"** romanidan farqli bo'lib, unda estetik va falsafiy-ishqiy g'oyalar yetakchilik qiladi. Asardagi zamon tahlil qilinsa, u mustaqillik davridagi jamiyatning ma'naviy va moddiy o'zgarishlari fonida tasvirlanganini ko'rish mumkin. **"Muvozanat"**da inson va ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlar to'qnashuvi aks ettirilgan bo'lsa, bu romanda inson ma'naviyati va borliqni estetik anglash kabi g'oyalar ustunlik qiladi. Bu asarda ham davr o'zgarishlariga qahramonlarning turlicha munosabati orqali muallif ko'plab insonlarning zamonga bo'lgan konsepsiyalarini ochib beradi. Hayotini faqat pul va boylik orttirish bilan o'tkazadigan Sherdil obrazi orqali moddiy dunyoning insonga qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rish mumkin. Asar boshida Sherdil obrazi qadriyatlarga sodiq inson sifatida qaralsa-da, zamon bosimi va milliy qadriyatlardan uzoqlashish uni o'zgartiradi. Uning ma'naviy dunyosida endilikda faqatgina **"mansab", "g'alaba"** kabi tushunchalar qoladi. Bu obrazning o'zligidan kechishi davrning o'zgaruvchan shaxsiga yaqqol misoldir.

Asarning bosh qahramoni sifatida keltirilgan Samandar obrazi milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq inson sifatida gavdalanadi. Samandar atrofdagi borliqqa, jamiyatga va zamonga o'zligini anglagan, ma'nan yetuk inson sifatida munosabatda bo'ladi. Personaj his-tuyg'usiz va chegaralangan zamon bilan to'qnashib, o'z davridagi insonlardan farqli ravishda ishqiy va tasavvufiy fikr yuritadi. Psixologik jihatdan tahlil qilinsa, ushbu obraz chuqur ruhiy iztiroblar ichidagi qahramondir. U tashqi dunyodagi voqealardan ko'ra qalbidagi ishq qasriga talpinadi. Uning ruhiy olamidagi eng yuksak tuyg'u, atrofdagilar ko'ra olmagan narsa — Ishqdir. Uning nutqi ham boshqa personajlardan farq qilib, oddiy, hissiz so'zlashuvda emas, balki mulohazali, falsafiy-ishqiy **xarakterga** ega. U o'zining ichki kechinmalarini insonlarga she'rlari orqali ifoda etadi. Quyidagi fikrlar orqali ham uning ishq dunyosini anglash mumkin: **"Faqat ishq... Faqat ishq... Boshqasi sarob, boshqasi shamolning o'tkinchi suroni... Inson o'z qalbiga nazar tashlasa, u yerda faqat sevgi qoladi. Qolgan hamma narsa — martaba, boylik — bu dunyo shamoli uchirib ketadigan xazondir"** [6; 3-b].

Asardagi yana bir obraz — Sabo orqali muallif sof qalbli insonlarning zamondagi o'zgarishlarga munosabatini ochib beradi. Sabo obrazi diskurslarida **"nur", "sof qalb"** va **"ezgu niyat"** kabi leksik birliklar yetakchilik qiladi. Samandar kabi Sabo obrazida ham ishq jamiyatdagi soxta, moddiy va pragmatik g'oyalarga qarshi kurashuvchi najot sifatida qaraladi. Muallif Sabo va Samandarning taqdiriga badiiy bashorat sifatida asarning dastlabki qismlarida keltirilgan **"Nodir va Nilufar"** sevgi qissasini eslatib o'tadi. Aynan shu qissada ham insonlarning jamiyat bilan munosabati Nodir va Nilufar obrazlari orqali ochib berilgan. Yozuvchi sof ishqni anglamagan, moddiy dunyo ko'zini ko'r qilgan insonlarni **xalq** emas, **olomon** va **toda** kabi so'zlar bilan tasvirlaydi. Bu orqali muallif ularni jamiyatdagi insoniy qadriyatlardan holi, sof tuyg'uni tushunmagan qora kuch sifatida ifodalaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, yozuvchi Ulug'bek Hamdamning **"Muvozanat"** va **"Sabo va Samandar"** romanlarida inson va zamon konsepsiyasi masalasi bir-biridan farqli **xarakterga ega** ekanligi aniqlandi. **"Muvozanat"** romanida inson va zamon konsepsiyasi shaxs va jamiyat o'rtasidagi muvozanat yoki uning buzilishi orqali ifodalab berilsa, **"Sabo va Samandar"** asarida ishq orqali zamonga qarshi

kurash muammosi ko'rsatiladi. Zamon o'zgarishi insoniyat uchun katta sinovdir. Bu sinovdan o'z qadriyatlarini unutmagan holda, zamon o'zgarishlariga moslashgan, ya'ni muvozanatni saqlay olgan insongina o'tadi. Muallif dastlabki romanida o'tmish va hozirgi zamonni bir-biriga qiyoslar ekan, muvozanat bu ikki jarayonni birlashtiruvchi yo'l ekanligini ko'rsatib beradi. Ikkala asardagi Yusuf, Sabo va Samandar obrazlari orqali zamon qanchalik tezkor o'zgarmasin, inson qalbi va uning ruhiyati chin insoniy tuyg'ularga muhtoj ekanligi hamda ularni asrab-avaylash lozimligi ko'rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy o'zbek nasri qahramonlari o'z zamonasining quli emas, balki ma'naviy qadriyatlarini himoya qiluvchi qahramonlardir. Ulug'bek Hamdamning asarlari insonning shiddat bilan o'zgarayotgan zamonga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni saqlagan holda moslashishi kerakligini targ'ib qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Baxtin M. Epos va roman (Romanni talqin etish metodologiyasi haqida) / rus tilidan M. Olimov tarj. // Filologiya masalalari. 2005. № 3. B. 239.
2. Solijonov Y. Hozirgi adabiy jarayon. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
3. Hamdam U. Badiiy tafakkur tadriji. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002.
4. Yo'ldashev Q., Yo'ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent: Kamalak, 2016.
5. Hamdam U. Muvozanat. Toshkent: Oltin qalam, 2025.
6. Hamdam U. Sabo va Samandar. Toshkent: Oltin qalam, 2025.